Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	
Innovatsiyalar va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashni takomillashtirish	784
<i>Usmonova Dilafruz Umirzoqovna</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligi	788
<i>Sharipov Ulug'bek Ibotovich</i>	
Texnologiya fanida raqamli ta'lim resurslari asosida amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish metodikasi	792
<i>X. Ch. Dusyorov, X. A. Qulmamatova, N. O. Shog'darov</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining strategik boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish tendensiyalari	796
<i>Itolmazova Gulzoda Qurbongeldiyevna</i>	
Sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etish metodikasi	800
<i>Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishda didaktik o'yinlarning roli	805
<i>Shononova Gulsanam Shavkat qizi</i>	
Masofaviy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish tajribasi	810
<i>Shukurov Mirshod Karim o'g'li, Sharipov Bahrom Bo'riyevich</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlarning sifatli ta'limdagi o'rni	816
<i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	819
<i>Bozozrova Adiba Xudayarovna</i>	
Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni olib borishda psixodiagnostik faoliyatning o'rni	823
<i>Odamova O'g'iljon Kenjayevna</i>	
Pedagogical and Psychological Possibilities of Technological Education in Developing Constructive Thinking in Early School Age	827
<i>Egamova Anbarjon Atanazarovna</i>	
Shaxsda empatiya shakllanishining yosh davrlar bo'yicha psixologik xususiyatlari	832
<i>Kurbanova Zaynab Jurakulovna</i>	
Voleybolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	836
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Samatova Maftuna Sohib qizi</i>	
Oliygo'h talabalari o'rtasida basketbol sporti mashg'ulotlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	840
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Husenova Norjona Umid qizi</i>	
Inson shaxsini shakllantirishda jamiyat tarbiyasining ahamiyati	844
<i>Normurodova Munisa Nuriddin qizi</i>	
Ikki tilli nutqda kod almashtirish hodisasining lingvistik, pragmatik va ijtimoiy funksiyalari	847
<i>Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi</i>	
Yosh kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi	850
<i>Nurullayev Abdixoliq Qaxxorovich</i>	



Jismoniy tarbiya murabbiylarining faoliyatini sport klublarida tashkil qilishning integrativ mexanizmlari didaktik-metodik yondashuvlar	853
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
O'quvchilarning ta'lim olish jarayoniga zamonaviy o'qitish usullarining ta'siri	857
Ochilova Sarvinoz Bozor qizi	
Talabalarga Regbi-7 sport o'yinida himoya va hujum usullari hamda texnologiyalarini takomillashtirish	860
Ramazonova Gulmira G'olib qizi	
Oliy ta'limda siyosiy tafakkurni shakllantirishda sun'iy intellektning pedagogik modeli: nazariya va amaliyot uyg'unligi.....	863
Rasulev Bobirjon Atxamovich	
Boshlang'ich sinflar ta'lim tizimida kommunikativ ta'lim harakatlarini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari	867
Shoira Rahimova Adilbekovna	
Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o'quv faoliyatini integrativ mexanizmlar orqali tashkil qilish va rivojlantirish.....	871
Sirojev Otajon Orifjonovich	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasi	875
Suleymanova Ra'no Dustbekovna, Bekova Nilufar Aliboy qizi	
Nemis tilidan o'zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklar.....	881
Turamurodova Sevinch Anvarovna	
Globalashuv jarayonida ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarning estetik madaniyatda ifodalanishi	884
Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna	
Ta'limga kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini olib kirishning dolzarbligi	888
Kodirova Kumushoy Farxodjon qizi	
Innovatsion yondashuvlar asosida ekologik ta'limni tashkil etish texnologiyalari	892
Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona	
История, теоретические основы и современные направления развития вида спорта "кураш"	898
Дустов Дилмурод Каримович	
Совершенствование инновационных технологий через виды спортивной деятельности студентов педагогических высших учебных заведений.....	902
Турдиев Умиджон Камолитдинович	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	906
Суяров Хуршид Бахриддинович	
Oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatining turli jihatlarida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish texnologiyalari	910
Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	914
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirishning mazmuni (dastur, darsliklar tahlili) va vositalari.....	919
Begmatova Nasiba Safarbayevna	
Innovative Method for the Treatment of Chronic Periodontitis Using the "Geistlich Bio-Oss" Preparation..	923
Pardayev Xurshidjon Uralovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligi.....	926
Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari	931
Tursunoy Yusupova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish.....	936
Zulayxo Nazarova, Musayeva Sayyora Erkaboy	

5-6 sinflarda matematika fanini o'qitishda mrt yondashuvini mblock v.5.4.3 dastur bilan takomillashtirish .	940
<i>Abduqodirova Patmaxon Tursunboevna, Moxinur Ruziyeva Mirzoulug'bek qizi</i>	
Kredit modul tizimida bo'lg'usi o'qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	946
<i>Abdurasulova Shoira Kushakovna, Xaitqulova Gulrux Qaxramon qizi, Abdumo'minova Charos Baxodir qizi</i>	
Maktablarda matematikadan o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	950
<i>Absattarova Gulmira</i>	
Pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarning roli va samaradorligi	953
<i>Akromova Nigora Erkinovna</i>	
Harakatga oid masalalarni yechish jarayonida jadvallardan foydalanishning samaradorligi	955
<i>Raximova Shoira Adilbekovna, Axmadjonova Lobar Otabek qizi</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlarning ahamiyati	959
<i>Bekniyazova Nursulu</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari	962
<i>Egamberdiyeva Yulduzxon Urinbayevna, Tojiboyeva Mo'nisaxon Umidbek qizi</i>	
Pedagogikaning mohiyati, vazifalari va ta'lim-tarbiyadagi zamonaviy yondashuvlar	965
<i>Ergasheva Dilnavoz Baxtiyor qizi</i>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.....	968
<i>Isayeva Umida Nig'matjanovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va uning pedagogik samaradorligi.....	970
<i>Mirzabaeva Malika</i>	
Bo'lajak energetik muhandislarni tayyorlashda yashil energetika ta'limini rivojlantirish	974
<i>Narimanov Baxodir Absalomovich</i>	
Modern Aspects of Epidemiological Issues in Periodontal Diseases Associated With the Consumption of Groundwater	977
<i>Nematova Farzona, Sankulov Jamshed Obloberdiyevich</i>	
Modern Insights Into the Epidemiology of Periodontal Diseases Linked to Groundwater Consumption.....	981
<i>Nematova Farzona, Sankulov Jamshed Obloberdiyevich</i>	
Falsafa fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkoniyatlari va metodologik asoslari hamda o'ziga xos xususiyatlari	983
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'gli</i>	
Pedagogik oliy ta'lim talabalarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili	986
<i>Shobduraximova Umriniso, Abduqaxxorova Moxinur</i>	
Logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda logopedik o'yinlarning ahamiyati va roli	990
<i>Yuldosheva Dilbarxon Turg'unovna</i>	
Mechanical Destruction of a Dental Implant.....	993
<i>Bojev Zukhriddin, Doniyorov Ortik</i>	
Инновационные подходы к диагностике и лечению кариеса: современные технологии в практике стоматолога.....	997
<i>Шукурова Нодира Тиллаевна, Шукуровна Наргиза Фуркатовна, Фуркатова Сабрина Фармоновна</i>	

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM TALABALARIDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Shobduraximova Umriniso

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi PhD. dotsent

Abduqaxxorova Moxinur

Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi xorijiy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Yevropa, AQSh va Osiyo mamlakatlarida qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar, kompetensiyaviy model, tajribaga asoslangan o'qitish, mentorlik dasturlari hamda talabalarining ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, liderlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni faqat nazariy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyat, jamoaviy loyihalar, refleksiv tahlil va ijtimoiy hamkorlik asosida samarali natija beradi. Shuningdek, oliy ta'lim muhitida demokratik boshqaruv tamoyillarini joriy etish, talabalarga tashabbus ko'rsatish imkoniyatini yaratish va akademik erkinlikni kengaytirish muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada xorij tajribasini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish yo'llari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi hamda pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga doir takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: liderlik qobiliyati, pedagogik ta'lim, xorij tajribasi, kompetensiyaviy yondashuv, mentorlik, innovatsion ta'lim, talaba faolligi, professional rivojlanish.

Abstract: This article examines the development of leadership competencies among students of pedagogical higher education institutions through the analysis of international experience. The study explores contemporary approaches implemented in Europe, the United States, and Asian countries, including competency-based models, experiential learning strategies, mentoring systems, and mechanisms that enhance student engagement and social participation. The findings indicate that effective leadership development requires the integration of theoretical instruction with practice-oriented activities, collaborative projects, reflective analysis, and academic partnership. Particular attention is paid to the creation of a democratic educational environment that encourages student initiative and supports continuous professional growth. The article substantiates the possibilities for adapting successful international practices to the national system of teacher education and offers recommendations aimed at improving the quality of future teacher training.

Key words: leadership competencies, pedagogical education, international experience, competency-based approach, mentoring, innovative education, student engagement, professional development.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития лидерских качеств у студентов педагогических высших учебных заведений на основе анализа зарубежного опыта. В ходе исследования изучены современные подходы, применяемые в странах Европы, США и Азии, включая компетентностные модели подготовки, обучение через практическую деятельность, системы наставничества и механизмы стимулирования социальной активности студентов. Анализ показал, что формирование лидерских компетенций требует интеграции теоретической подготовки с практико-ориентированными формами обучения, проектной деятельностью, рефлексией и академическим сотрудничеством. Особое внимание уделяется созданию демократической образовательной среды, расширению возможностей для инициативы студентов и поддержке их профессионального саморазвития. В статье обоснованы направления адаптации эффективных зарубежных практик к национальной системе педагогического образования и сформулированы предложения по повышению качества подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: лидерские качества, педагогическое образование, зарубежный опыт, компетентностный подход, наставничество, инновационные технологии, студенческая активность, профессиональное развитие.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik oliy ta'lim muassasalari zimmasiga nafaqat malakali mutaxassis tayyorlash, balki ijtimoiy mas'uliyatni his eta oladigan, tashabbuskor, innovatsion fikrlaydigan va jamoani ortidan ergashtira oladigan yetuk shaxsni shakllantirish vazifasi ham yuklatilmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot



oqimining keskin ortishi hamda ta'lim mazmunining yangilanishi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy- amaliy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki maktab va boshqa ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, o'quvchilarni ruhlantiruvchi hamda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtiruvchi yetakchi shaxsdir. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida liderlik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi xalqaro tajriba asosida tahlil etishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda liderlik tushunchasi ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Masalan, Jeyms M. Kouzes va Barri Z. Pozner "The Leadership Challenge" nomli asarida liderlikni shaxsning boshqalarni umumiy maqsad sari ilhomlantirish va ularni faol harakatga undash qobiliyati sifatida izohlaydilar. Ushbu yondashuv pedagogik kontekstda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki o'qituvchi o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi zarur. Shuningdek, Kenneth Leithwood va Doris Jantzi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim muassasalarida liderlik o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslangan. Mazkur ilmiy qarashlar pedagogik ta'lim jarayonida liderlikni alohida kompetensiya sifatida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy tajribada pedagogik ta'lim tizimi ko'proq kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi kuzatiladi. Masalan, Linda Darling-Hammond o'zining o'qituvchilarni tayyorlashga bag'ishlangan ilmiy ishlarida amaliyotga yo'naltirilgan tayyorgarlik modeli samaradorligini ta'kidlaydi hamda nazariy bilimlar real ta'lim muhitidagi tajriba bilan integratsiyalashganda kasbiy yetuklik shakllanishini asoslaydi. Ushbu fikrlar pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish jarayoni auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyat, maktab amaliyoti, jamoaviy loyihalar va refleksiv tahlil orqali boyitilishi lozimligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, John Hattie ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni keng ko'lamda tahlil qilib, o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasi va yetakchilik xususiyatlari ta'lim samaradorligida muhim o'rin tutishini qayd etadi. Bu esa pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarning liderlik salohiyatini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega ekanini anglatadi. Zero, bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida mustaqil qaror qabul qila olishi, muammoli vaziyatlarda tashabbus ko'rsatishi va jamoani samarali boshqara olishi zarur. Osiyo mamlakatlari tajribasida ham pedagogik liderlik masalasi dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Masalan, Singapur ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida liderlik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish modeli qo'llaniladi, bunda talabalar erta bosqichdan boshlab loyiha faoliyati va hamkorlikda o'qitish jarayonlariga jalb etiladi. Ushbu yondashuv pedagogik ta'limda liderlikni nazariy tushuncha emas, balki amaliy ko'nikma sifatida rivojlantirish muhimligini tasdiqlaydi. Ta'kidlash joizki, milliy pedagogik ta'lim tizimida ham liderlik masalasiga e'tibor ortib bormoqda, biroq mazkur yo'nalishda tizimli, xalqaro tajriba bilan qiyosiy asoslangan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Shuning uchun xorij tajribasini chuqur tahlil qilish, uning samarali jihatlari aniqlash va milliy sharoitga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda madaniy, ijtimoiy hamda institutsional omillarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir ta'lim tizimi o'ziga xos tarixiy va ijtimoiy sharoitda shakllanganligi sababli, xorijiy modelni to'liq ko'chirish emas, balki ilmiy asoslangan adaptatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shu tariqa, pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi. Xalqaro ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, liderlik kompetensiyalarini shakllantirish ko'p omilli, uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, u ta'lim mazmuni, metodlari hamda tashkiliy muhit bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur tadqiqotning kirish qismi aynan shu muammoning dolzarbligini asoslash, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish hamda kelgusida amalga oshiriladigan izlanishlar uchun nazariy-metodologik poydevor yaratishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasini chuqur tahlil qilish, avvalo, ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini aniqlashni talab etadi. Ilmiy manbalarda pedagogik liderlik nafaqat boshqaruv funksiyasi, balki ta'lim jarayoniga maqsadli ta'sir ko'rsatish, jamoani umumiy qadriyatlar asosida birlashtirish va o'quvchilarning rivojlanishiga yo'naltirilgan muhit yaratish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Masalan, Alma Harris ta'lim muassasalarida taqsimlangan liderlik modelini tahlil qilib, samarali maktab muhitini shakllantirishda jamoaviy yetakchilik muhim rol o'ynashini asoslaydi. Bu yondashuv pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ham dolzarb bo'lib, talabalarni faqat individual yetakchi sifatida emas, balki jamoa bilan ishlay oladigan, mas'uliyatni bo'lisha biladigan shaxs sifatida tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

AQSh va Yevropa mamlakatlarida pedagogik ta'lim jarayonida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish ko'pincha tajribaga asoslangan o'qitish (experiential learning) modeli orqali amalga oshiriladi. David A. Kolb o'zining tajribaviy o'qitish nazariyasida bilim real faoliyat jarayonida refleksiya va tahlil orqali mustahkamlanishini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv pedagogik oliy ta'lim talabalari uchun maktab amaliyoti, mikroo'qitish, loyiha asosida ta'lim va ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish orqali liderlik ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Amaliyot jarayonida talabalar real pedagogik vaziyatlarga duch keladi, muammolarni hal etadi, jamoa bilan ishlaydi va qaror qabul qilish mas'uliyatini his etadi. Bu esa nazariy bilimlarni real faoliyat bilan integratsiyalash imkonini yaratadi.

Finlyandiya tajribasi alohida e'tiborga loyiqdir. Pasi Sahlberg o'z tadqiqotlarida Finlyandiya ta'lim tizimida o'qituvchilarga yuqori darajadagi ishonch va mustaqillik berilishi ularning liderlik salohiyatini tabiiy ravishda rivojlantirishini ta'kidlaydi. Ushbu modelda pedagogik oliy ta'lim talabalari ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etiladi, mustaqil izlanish olib boradi va o'z pedagogik qarashlarini asoslashga o'rgatiladi. Bu jarayon liderlikning intellektual hamda kasbiy komponentlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buyuk Britaniyada esa o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida refleksiv amaliyotga alohida urg'u beriladi. Donald Schön refleksiv amaliyot nazariyasida mutaxassisning o'z faoliyatini doimiy tahlil qilishi va tajribadan saboq chiqarishi kasbiy yetuklikning muhim omili ekanini ko'rsatadi. Pedagogik oliy ta'lim jarayonida refleksiv yondashuvni qo'llash talabalarda o'z kuchli va zaif tomonlarini anglash, o'zini baholash hamda o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa liderlikning ichki, shaxsiy poydevorini mustahkamlaydi. Osiyo mamlakatlarida, xususan, Janubiy Koreya va Singapurda mentorlik tizimi orqali liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish amaliyoti keng tarqalgan. Mentor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik jarayoni nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki mas'uliyat, tashabbuskorlik va kommunikativ salohiyatni ham rivojlantiradi. Kenneth Leithwood va Christopher Day ta'lim muassasalarida liderlikning barqaror rivoji ko'p jihatdan mentorlik hamda professional hamkorlik madaniyatiga bog'liqligini qayd etadi.

Ushbu tajriba pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ham ustoz-shogird an'analarini zamonaviy shaklda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, liderlik qobiliyatini rivojlantirishda o'quv dasturining mazmuni bilan bir qatorda ta'lim muhitining demokratikligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish, talabalar kengashlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishini rag'batlantirish ularning tashabbuskorlik va javobgarlik hissini kuchaytiradi. John P. Kotter o'zining o'zgarishlarni boshqarish nazariyasida tashkilot ichida faol ishtirok hamda umumiy maqsadni anglash yetakchilikni mustahkamlashini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv pedagogik ta'lim muhitida ham qo'llanilganda talabalar o'zlarini jarayonning faol subyekti sifatida his etadilar. Milliy ta'lim tizimiga xorijiy tajribani moslashtirish jarayonida bir qator omillarni hisobga olish zarur. Avvalo, ijtimoiy-madaniy muhit, an'anaviy pedagogik qadriyatlar va mavjud institutsional imkoniyatlar tahlil qilinishi lozim.

Xorijiy modelni to'liq ko'chirish emas, balki uning samarali elementlarini tanlab olish va mahalliy sharoitga integratsiyalash ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Shu ma'noda, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda kompetensiyaviy yondashuv, amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish, refleksiv tahlil hamda mentorlik tizimini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u nazariy tayyorgarlik, amaliy faoliyat, refleksiya hamda ijtimoiy hamkorlikning o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. Bunday yondashuv bo'lajak o'qituvchining kasbiy yetukligini ta'minlash, uning ta'lim jarayonidagi faol pozitsiyasini mustahkamlash hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan lider shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, liderlik kompetensiyalari tasodifiy yoki o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki maxsus pedagogik shart-sharoitlar, tizimli yondashuv va maqsadli ta'lim strategiyalari asosida rivojlantiriladi. AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasida kompetensiyaviy model, tajribaga asoslangan o'qitish, refleksiv amaliyot hamda mentorlik tizimi liderlik salohiyatini shakllantirishning muhim omillari sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, samarali pedagogik liderlik nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmaydi, balki amaliy faoliyat, jamoaviy hamkorlik va doimiy refleksiya orqali mustahkamlanadi. Shu bois pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarni real ta'lim muhiti bilan erta bosqichdan tanishtirish, loyiha faoliyatiga jalb etish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv talabalarda tashabbuskorlik, mas'uliyat, kommunikativ madaniyat va strategik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Xorijiy tajribaning yana bir muhim jihati – ta'lim muhitining demokratikligi va akademik erkinlikning ta'minlanishidir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, ochiq muloqot hamda ishonchga asoslangan munosabat liderlikning ichki motivatsion omillarini kuchaytiradi. Bu jarayonda mentorlik instituti, professional hamjamiyatlarning faoliyati va uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xorijiy tajribani milliy pedagogik ta'lim tizimiga moslashtirishda ijtimoiy-madaniy xususiyatlar, an'anaviy qadriyatlar va mavjud institutsional imkoniyatlarni hisobga olish zarur.

Har bir ta'lim tizimi o'ziga xos sharoitda rivojlanadi, shuning uchun samarali elementlarni tanlab olish va ularni mahalliy sharoitga mos ravishda integratsiyalash ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayonda kompetensiyaviy ta'lim modeli, amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, refleksiv tahlil va mentorlik tizimini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish bo'lajak o'qituvchining kasbiy yetukligi va ta'lim jarayonidagi samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim muassasalarida innovatsion muhit yaratish hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan faol, mas'uliyatli va yetakchi pedagoglarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Darling-Hammond, L. Teacher Education Around the World: What Can We Learn from International Practice? // European Journal of Teacher Education. – 2017. – Vol. 40, No. 3. – Pp. 291-309.
2. Harris, A. Distributed Leadership: According to the Evidence // Journal of Educational Administration. – 2008. – Vol. 46, No. 2. – Pp. 172-188.
3. Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 378 p.
4. Kolb, D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
5. Leithwood, K., Day, C., Sammons, P., Harris, A., Hopkins, D. Successful School Leadership: Linking with Learning and Achievement. – Maidenhead: Open University Press, 2006. – 296 p.
6. Sahlberg, P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2015. – 240 p.
7. Schön, D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
8. Kouzes, J.M., Posner, B.Z. The Leadership Challenge. – San Francisco: Jossey-Bass, 2017. – 400 p.
9. Yo'ldoshev, J.G., Usmonov, S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. – 256 b.
10. Xo'jayev, N.X., Hasanboyeva, O., Turg'unov, J. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 320 b.
11. Qurbonov, Sh., Seytxalilov, E. Ta'lim sifatini boshqarish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2013. – 224 b.
12. Musurmonova, O. Pedagogik kompetentlik va kasbiy rivojlanish asoslari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2019. – 180 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.